

2019 yilning yanvar oyida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar oyida Jizzax viloyatida jami **89,1 mlrd.** soʻm qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **102,4 %**ni tashkil etdi.



Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan **0,9 mlrd.soʻm** qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **1,1 %**ni hamda oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʻati **207,6 %**ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **63,8 %** i yoki **56,9 mlrd.soʻm** toʻgʻri keldi va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **122,8 %**ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa **35,1 %** yoki **31,3 mlrd.soʻm** toʻgʻri keldi hamda oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **74,6 %**ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar oyidagi qurilish ishlari tarkibi

Yirik pudrat tashkilotlari

-hajm	0,9 mlrd.soʻm
-oʻsish surʻati	207,6 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar


-hajm	56,9 mlrd.soʻm
-oʻsish surʻati	122,8 %

Norasmiy sektor

-hajm	31,3 mlrd.soʻm
-oʻsish surʻati	74,6 %

2019 yil yanvar oyida viloyatda bajarilgan jami pudrat ishlarining qariyb 63,8 foizi kichik biznes subʻyektlari hissasiga toʻgʻri keladi.

**2018 yilning yanvar oyida bajarilgan
qurilish ishlari tarkibi (jamiga nisbatan %da)**




Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining ulushi 1,1 %ni tashkil etdi. Viloyatda asosan qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilib, jami qurilish ishlarining 63,8 %ni tashkil etdi yoki 56,9 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 122,8 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan pudrat ishlari hajmi 31,3 mlrd. so'mni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmning 35,1 %iga teng bo'ldi. Shu bilan birga o'tgan yilning mos davriga nisbatan 74,6 %ni tashkil etdi.




**2019 yilning yanvar oyida
shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari
(jamiga nisbatan %da)**



Viloyatda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Sharof Rashidov tumanida (72,5 %), Jizzax shahrida (69,6 %), Paxtakor tumanida (67,3 %), Zarbdor tumanida (53,8 %), G'allaorol tumanida (52,0 %) to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Zafarobod tumanida – (7,4 %), Forish tumanida (26,9 %) kuzatildi. Bu hududdagi qurilish ishlarining asosiy qismi norasmiy sektor hissasiga to'g'ri keldi – hududdagi jami qurilish ishlarining 92,6 %, Forish tumanida 73,1 %ini tashkil etdi.

2019 yilning yanvar oyida shahar va tumanlar qurilish ishlarining o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



Qurilish ishlarining shahar va tumanlar kesimida eng yuqori o'sish sur'ati Paxtakor tumani hamda Jizzax shahrida kuzatildi.

Jizzax shahrida asosan qurilayotgan ko'p qavvatli turar joylarining qurilish ishlari jadal borishi tufayli o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,1 % bo'lishi ta'minlandi.

Paxtakor tumanida yuqori o'sish sur'ati, yani 113,2 %i kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan qurilgan ijtimoiy soha ob'yektlari va boshqa loyihalarning bajarilishi natijasidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda noturar binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmidan 78,1 %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,4 % punktga kamaydi.

Fuqarolik ob'yektlari qurilishi hajmi joriy davrda 14,8 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,8 % punktga ko'paydi, maxsus qurilish ishlari hissasiga esa 7,1 %ga to'g'ri keldi.

1-jadval


2019 yil yanvar oyida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlar tarkibi

(mlrd.so'm)

	Jami qurilish ishlari	shu jumladan qurilish ishlari tarkibi bo'yicha		
		yirik pudrat tashkilotlari	kichik korxonalar va mikrofirmalar	norasmiy sektor
Jizzax viloyati	89,1	0,9	56,9	31,3
Jizzax shahar	35,0	0,9	27,7	6,4
tumanlar:				
Arnasoy	1,6	-	0,6	1,0
Baxmal	4,5	-	1,9	2,6
G'allaorol	7,0	-	3,7	3,3
Sharof Rashidov	12,0	-	8,9	3,1
Do'stlik	2,7	-	1,0	1,7
Zomin	4,8	-	2,2	2,6
Zarbdor	4,2	-	2,4	1,8
Zafarobod	1,5	-	0,1	1,4
Mirzacho'l	2,1	-	1,3	0,8
Paxtakor	7,1	-	4,9	2,2
Forish	4,2	-	1,2	3,0
Yangiobod	2,4	-	1,0	1,4

2019 yil yanvar oyida shahar va tumanlar kesimida bajarilgan qurilish ishlari

(mlrd.so'm)



Shahar va tumanlar kesimida bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Jizzax shahrida 35,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Buning sababi Shahar qiyofasini tubdan yangilash, sotish uchun qurilayotgan ko'p qavatli uylar, muhandislik kommunikatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, ijtimoiy soha va ko'ngil ochish maskanlarini barpo etilayotganini takidlash mumkin.


Shu bilan bir qatorda qurilish ishlari yuqori sur'atlarda bajarilayotgan qurilish ishlari hajmi Sharof Rashidov tumanida kuzatildi. Bajarilgan qurilish ishlari 11,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Bajarilgan qurilish ishlarining asosini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan uylar qurilishi tashkil qilmoqda.

5-diagramma

2019 yil yanvar oyida qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %da




- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi ob'yektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi ob'yektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

2019 yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari (mlrd.so'mda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi ishlarining qurilish loyhalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallangan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 78,1 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatgichga nisbatan 2,4 % punktga kamaydi.

Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 14,8 %ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 % punktga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari xissasida esa 7,1 % to'g'ri keldi xamda o'tgan yildagi ko'rsatgichga nisbatan 0,6 % punktga ko'paydi.


2019 yil yanvar oyida mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi (mlrd. so'm)

	<i>yanvar-dekabr</i>	
	<i>2018 y.</i>	<i>2019 y.</i>
Qurilish ishlari hajmi	76,1	89,1
<i>shu jumladan:</i>		
davlat	4,0	5,6
nodavlat	72,1	83,5

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 83,5 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari xajmining 93,7 %ni tashkil qildi.



7-diagramma



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilagan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Jizzax shaxriga 39,3 %ga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sharof Rashidov tumaniga 13,4 %i, Paxtakor tumaniga 8,0 %i va G'allaorol tumaniga 7,8 %iga to'g'ri keldi.

**Jizzax viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: **D.Mullajonov**
Aloqa telefoni: **(0371) 230-83-55**